



**Husan ERGASHEV,**  
O'zMU o'qituvchisi  
E-mail: [husanergashev420@gmail.com](mailto:husanergashev420@gmail.com)

*Toshkent Davlat Texnika universiteti professori, tarix fanlari doktori R.Xoliqova taqrizi asosida*

## ЎЗБЕКISTON MILLIY UNIVERSITETI TARIX FAKULTETI FAOLIYATIGA CHIZGILAR

Аннотация

Ushbu maqola O'zbekistonda tarix fani va tarixchi mutaxassislarini tayyorlashda muhim o'ringa ega O'zbekiston Milliy universiteti Tarix fakultetining tashkil topganidan 2000-yillarning o'rtalariga qadar faoliyatining ayrim jihatlariga to'xtalib, unda o'n yilliklar kesimida olib borilgan jarayonlarning tahliliga urg'u beriladi. Mustaqillikning ilk yillarida olib borilgan ishlar ko'lam jihatidan salmoqli bo'lgani bois yuqorida qayd etilgan davrga qadar qamrab olindi.

**Kalit so'zlar:** Sobiq Ittifoq, Toshkent Davlat universiteti, O'zbekiston Milliy universitet, "Qadimgi dunyo tarixi" kafedras, "O'rta asrlar tarixi" kafedras, "Yangi zamon tarixi" kafedras, "O'rta Osiyo arxeologiyasi" kafedras, "San'atshunoslik" kafedras.

## AN OVERVIEW OF THE ACTIVITIES OF THE FACULTY OF HISTORY OF THE NATIONAL UNIVERSITY OF UZBEKISTAN

Annotation

This article examines selected aspects of the activities of the Faculty of History of the National University of Uzbekistan, which occupies an important place in the development of historical scholarship and the training of professional historians in Uzbekistan, from its establishment to the mid-2000s. Particular emphasis is placed on the analysis of processes carried out across successive decades. Owing to the substantial scope of work undertaken during the early years of independence, the study covers the period up to the time specified above.

**Keywords:** Former Union, Tashkent State University, Uzbekistan National University, department of "history of the ancient world", department of "history of the Middle Ages", department of "history of the new Time", department of "Archaeology of Central Asia", department of "Art Studies".

## ОСНОВНЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ИСТОРИЧЕСКОГО ФАКУЛЬТЕТА НАЦИОНАЛЬНОГО УНИВЕРСИТЕТА УЗБЕКИСТАНА

Аннотация

В данной статье рассматриваются отдельные аспекты деятельности исторического факультета Национального университета Узбекистана, занимающего важное место в развитии исторической науки и подготовке специалистов-историков в Узбекистане, с момента его основания до середины 2000-х годов, при этом особое внимание уделяется анализу процессов, осуществлявшихся в разрезе десятилетий. Ввиду масштабности и значимости работ, проводившихся в первые годы независимости, исследование охватывает период вплоть до указанного времени.

**Ключевые слова:** Бывший Союз, Ташкентский государственный университет, Национальный университет Узбекистана, кафедра "история Древнего мира", кафедра "история Средних веков", кафедра "история Нового времени", кафедра "археология Средней Азии", кафедра "искусствоведение".

**Kirish.** Mustaqil O'zbekiston davlatining tashkil topishi va uning o'z mustaqilligini qo'lga kiritishi tarixiy voqea bo'lib, xalqimiz uni ko'pdan buyon orzu qilib kelar edi. XX asrning so'ngi o'n yilligi dunyoning siyosiy manzarasida tub burilishlar va yangi davlatlarning tashkil topishi bilan katta ahamiyatga ega bo'ldi. Tashkil topgan yosh davlatlarning keyingi taraqqiyot yo'li borasida har bir davlat o'zining tarixi, madaniyati va iqtisodi kabi ko'plab sohalarni inobatga olgan holda o'z yo'lini o'zi tanlab, rivojlanish sari dadil, olg'a yurib bordilar. Bu vaqtda mamlakatimizning taraqqiyot yo'li ham bir qator amalga oshirila boshlangan isholohotlar va qabul qilingan qonunlar misolida ko'rishimiz mumkin. Mamlakatning o'z taraqqiyot yo'lida ijtimoiy fanlar, xususan, tarix fani nihoyatda katta ahamiyatga ega bo'lib, davlatning milliy ruhini aks ettirish, moddiy va ma'naviy qadriyatlarni tiklash hamda tariximizning turli davrlariga oid ilgari surib kelingan munosabatlariga baho berishda fan doirasida olib borilgan tadqiqotlar va izlanishlar bunga javob bera oladi. Taassufki, bu kabi ilmiy izlanishlar Sobiq Ittifoq davrida ham olib borilganligi va mafkura asosida talqin etilganligi sababli

tariximizga xolis baho berishda tarixiy haqiqatlardan bu yillarda ko'z yumib o'tilganligini ko'rishimiz mumkin.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Tarix fakultetining tashkil etilishi hamda uning keying yillardagi faoliyatini o'rganish borasida salmoqli ishlar olib borilgan bo'lib, ular sirasiga biz P.A.Kovalev va N.A.Akopyanlar tomonidan yozilgan "Toshkent davlat universiteti Tarix fakulteti tarixidan" deb nomlangan maqolani alohida qayd etishimiz lozim. Ushbu maqolada mualliflar fakultetning 35 yillik faoliyatini qisqacha yoritib, tarix fakultetining tashkil etilishi, kafedralarning tashkil etilishi to'g'risida hamda amalga oshirilgan ishlar to'g'risida ko'plab mulohazalar yoritib berilgan. 1974 yilda esa S.Xolboyev tomonidan "ToshDU ning tashkil topishi va O'zbekistonda universitet ta'limining rivoji" mavzusiga bag'ishlangan dastlabki ilmiy-tadqiqot ishi nihoyasiga yetkazildi va shu mavu bo'yicha nomzodlik dissertatsiyasini himoya qildi [1]. Bundan tashqari 1980 yili Sh.Shamuhamedov va Z.Dan tomonidan "ToshDU O'rta Osiyo fan rivojining markazi" nomli mavzuga bag'ishlangan risolani chop etishib, unda universitetda fan rivoji har

tomonlama tahlil qilib berilgan. Mualliflar o'z asarlarida qisqa bo'lsada Tarix fakulteti olimlari 1935-1980 yillarda olib borilgan ilmiy ishlarni tahlil qilishganligi ko'rishimiz mumkin [2]. 1990 yili ToshDU ning 70 yillik to'yi keng nishonlandi. Ushbu yubiley munosabati bilan bir qator kitoblar va ilmiy asarlar nashr etildi. ToshDU ning 70 yillik yubileyiga bag'ishlangan bu kitoblarda oliy dargohning tashkil topishidan 70 yil mobaynida bosib o'tgan taraqqiyot yo'li yoritilgan bo'lib, u universitet tarixini, jumladan fakultet tarixini o'rganish uchun muhim qo'llanma hisoblanadi. Chunki, ushbu yubiley munosabati bilan ToshDU barcha fakultetlari qatori Tarix fakulteti to'g'risidagi ham ancha boy ma'lumotlar berilgan. Ammo, bu ma'lumotlar ilmiy tahlil etilganligini ko'rishimiz mumkin.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Ushbu mavzuni yoritishda tarix fanida tan olingan tarixiylik, obeyektivlik tamoyillari, o'zaro qiyosiy tahlil hamda mazkur mavzuning qayd etilgan yillarida talabalikdan endi o'zlarining ilk mehnat faoliyatlarini boshlagan bugungi kundagi professor-o'qituvchilar bilan olib borilgan og'zaki tarix (oral history) kabi zamonaviy metodlardan foydalanildi.

**Tahlil va natijalar.** O'zbekiston Sobiq Ittifoqning so'ngi yillardagi maorif sohasida bo'lgan qiyinchiliklar, muammolar va kamchiliklarni ko'rish mumkin. Ularni ilmiy jihatdan o'rganish va xolisona tahlil etish, hamda tarixiy haqiqat mezoni asosida to'g'ri va aniq baho berish davr talabidir. Bu borada mamlakatimizda tashkil etilgan dastlabki tarix fani mutaxassislarini tayyorlash va fanga oid dolzarb ilmiy tadqiqotlar maskani hisoblangan Toshkent Davlat (hozirgi O'zbekiston Milliy) universiteti Tarix fakultetining o'zni beqiyosdir. Ushbu fakultet 1935 yilning may-avgust oylari davomida bo'lg'usi fakultetning asosiy masalasi, ya'ni, kadrlar masalasi va kutubxonani tashkil etish masalalariga katta e'tibor berildi. 1935-yilning avgust oyida fakultetning dastlabki qaldirg'ochlari, ya'ni 79 nafar talaba qabul qilindi va 1 sentabr kuni fakultetda o'quv jarayoni boshlab yuborildi. Tashkil etilgan vaqtda 3 ta kafedra "Qadimgi dunyo tarixi", "O'rta asrlar tarixi" va "Yangi zamon tarixi" nomli kafedralar bilan boshlandi. Toshkent Davlat univristeti Tarix fakulteti jamoasining Sobiq Ittifoq yillarida nihoyatda ziddiyatli va murakkab yo'lni bosib o'tdi. U jamiyatning bir qismi sifatida davrlar evrilishini o'zida aks ettirib, turli holatlarni boshdan kechirdi. Urush yillarida markaziy shaharlardagi yirik olimlarning O'zbekistonga evakuatsiya qilinishi natijasida universitetning yuqori salohiyat egalari o'zida jamladi. Ular fakultetda ishlash jarayonida o'quv jarayonini boyitish bilan birga, tarix fani rivojiga ham o'zlarining munosib hissalarini qo'shdilar.

O'tgan asrning 40-50 yillarda esa Universitet Tarix fakulteti olimlari sermahsul ijod qilib, O'rta Osiyo xalqlari tarixining qadimgi, o'rta asrlar va yangi zamon davriga oid tadqiqotlar olib borib, respublikamiz tarix fani rivojiga katta hissa qo'shish bilan birga universitetda tarix fani bo'yicha ilk nomzodlik va doktorlik dissertatsiyalar muvafaqiyatli himoya qilindi. Shu bilan birga ayni shu yillardagi shaxsga sig'inish oqibatlarini tarixchi-mutaxassislar tayyorlash va tarixchi olimlarning ilmiy-tadqiqotlariga ham salbiy ta'sir ko'rsatdi. Stalincha VKP/b ning qisqacha tarixi kursi tarixchilarning tarixiylik tamoyillaridan chekinishga sabab bo'ldi. Mazkur davr asorati uzoq yillar tarix fani uchun sezilib turdi. Biroq shunga qaramay bir qator kafedralar tashkil etilganini ta'kidlab o'tish joizdir, jumladan, 1940 yil "O'rta Osiyo arxeologiyasi" (mudir: prof. M.E.Masson), 1942 yil "San'atshunoslik" (mudir: prof. B.A.Vinner (ushbu kafedra 1952 yilga qadar faoliyat olib borgan) nomli kafedralar tashkil etildi. Respublika diqqat e'tiborni ikkinchi jahon urushiga qaratgan bir vaqtda yuqoridagi kafedralarning tashkil etilishi ham urush yillarida

tarix fani sohasida qilingan ishlar to'xtab qolmaganligidan dalolat beradi [3].

50-60 yillarda fakultetda tarixchi-mutaxassislar tayyorlash borasidagi olib borilgan ishlar ham salbiy, ham ijobiy tomonlariga egadir. Talabalarga talabchanlik nisbatan oshirilishi bilan bir qatorda, mustaqil ishlashning yangi usullarini o'rgatilishi, iqtidorli talabalarni ilmiy-tadqiqot ishlariga jalb etilishi – mutaxassislar tayyorlash borasidagi ijobiy tomonlar hisoblansa, aynan shu davrda o'quv jarayonini mafkuraga bog'lab qo'yilishi, ijtimoiy fanlarni o'qish va ularni o'zlashtirilishni birinchi o'ringa chiqarib qo'yilishi kabi holatlar mutaxassislar tayyorlash borasidagi salbiy tomonlari sanaladi.

70-80 yillarda fakultet talabalari safiga respublikamiz ehtiyojlarini hisobga olmagan holda talabalar qabul qilish soni ko'paytirib yuborildi. Bu esa o'z-o'zidan o'quv jarayonlarining sifat darajasiga salbiy ta'sir ko'rsatdi. Shu bilan birga ushbu davrda olib borilayotgan o'quv jarayonlarida respublikamiz milliy qadriyatlarini va xususiyatlarini talabiga mos kelmaydigan noxush holatlar mavjud edi. Milliy guruhlarda dars o'tish borasidagi til muammosi hal etilmagan edi. Hamon darslarning aksariyati, ayniqsa maxsus kurslar rus tilida olib borilar, ularning chuqur bilim olishlari o'zbek tilida darsliklar va o'quv qo'llanmalari yetishmas edi[4].

Yuqorida qayd etilganlardan tashqari, bu vaqtda fakultet dekani bo'lgan G.A.Hidayatovning sa'y-harakatlari asosida fakultet jamoasi bilan Xamza nomli teatr jamoasi o'rtasida yaxshi do'stona aloqalar o'rnatildi. Teatr aktyorlaridan S.Eshonto'rayeva, I.Boltayeva, Razzoq Hamroyev, Nabi Raximov, G'ani A'zamovlar doimiy ravishda fakultetga, yotoqxonaga va xatto paxta dalalariga tashrif buyurishib uchrashuvlar o'tkazib turishar edi. Jumladan, 1977 yil SSSR xalq artistlari S.Eshonto'rayeva, N.Raximovlar paxta dalalariga ma'naviy va madaniy hamda estetik jihatdan barkamol bo'lishlariga katta ahamiyat berdi. Biroq shuni alohida ta'kidlash zarurki, 1978 yili fakultet talabalari Toshkent shahrida joylashgan barcha oliy o'quv yurti talabalari singari, paxta dalalarida hosil qolmaganiga qaramay, dekabr oyining oxirigacha qor va sovuqda Sirdaryo viloyati dalalaridagi sanitar talabalariga umuman javob bermaydigan dala-shiyponlarida va vaqtinchaqil yotoqxonalarida ushlab turildi. Talabalar uch oydan oshiq muddat davomida o'qishni boshlab, bir semester bodan yo'g'i bir-bir yarim oy o'qishdi xolos. To'g'ri, biz talabalar 1974-1979 yillar mobaynida va hatto 80-yillarda ham dehqonlarga yaqindan yordam berib Vatanimiz paxta xirmonini yaratish borasida haqiqatan ham yuqori mehnat ko'tarinkiligi va vatanparvarlik tuyg'usini naqmayon qildik. Ammo shu bilan bir ga respublikamizning ma'naviy rivojlanish uchun suv va havo kabi zarur bo'lgan bilimni olish va uni o'z vaqtida o'zlashtirish borasida juda kata yo'qotishlarni boshimizdan kechirdik deya talabalik yillarini yodga oladi t.f.d., prof. R.E.Xoliqova [5].

80 yillarning oxiri va 90 yillar boshiga kelib fakultet o'quv jarayonini tashkil etish sohasida jiddiy ijobiy yutuqlar qo'lga kiritildi. O'zbek guruhlarida ta'lim olayotgan talabalar uchun barcha fanlar, shu jumladan, maxsus kurslar ham to'la o'zbek tilida o'qilishiga erishildi. Bu esa o'z-o'zidan ilmiy maqolalar, darsliklar va kitoblarni o'zbek tilida yozishga va nashr etishga keng imkon ochib berdi [6].

80 – 90 yillarda Tarix fakulteti rahbariyati respublikamiz va Sobiq Ittifoq miqyosida tarixchi mutaxassislar tayyorlash bilan birga xalqaro miqyosda mutaxassislar tayyorlashga ham katta e'tibor berishdi. O'ndan oshiq tarixchi-arxeolog mutaxassislar tayyorlab berildi. Xususan, 1988 yili A.S.Sagdullayev fakultet dekani lavozimiga tayinlanganidan so'ng, avvalo, fakultetda kadrlar masalasiga, o'quv, ilmiy va tarbiyaviy jarayonlarni o'zgartirishga katta e'tibor berdi.

Davr talabiga mos holda "O'zbekiston xalqlari tarixi" kafedrasining ish o'rinini kengaytirishga harakat qilindi va fakultetda yangi kafedralar tashkil etish kun tartibiga qo'yildi. Fakultetga yangi iqtidorli olimlardan hisoblangan professorlar T.K.Xo'jayov, S.I.Gitlin, R.Farmonov, o'qituvchilardan V.I.Gulini, Sh.A.Pidayev, U.V.Raxmonov, Z.U.Choriyev, T.A.Xoshimov, A.G.Muminov, Sh.Sarimsoqova, A.Ten va Y.G'afforovlar kabi ko'plab bilimli o'qituvchilar qabul qilindi [7].

Tarix fakultetida 1991-1992 o'quv yilida 11 ta kafedra faoliyat ko'rsatgan bo'lib, ular: O'zbekiston xalqlari tarixi, Yangi va eng yangi tarix, Etnografiya, Qadimgi dunyo va o'rta asrlar tarixi, O'rta Osiyo Arxeologiyasi, Madaniyat tarixi va nazariyasi, Tarixni o'qitish uslubi, Yevroosiyo xalqlari tarixi, Siyosiy partiyalar tarixi, Osiyo va Afrika mamlakatlari tarixi, Qadimgi dunyo va o'rta asrlar tarixi nomli kafedralar faoliyat ko'rsatgan. Bu vaqtda ta'lim 5 yildan iborat bo'lib[8], fakultetda kunduzgi, kechki va sirtqi ta'lim shakllarida talabalarga tahsil berilgan[9]. Talabalari safida o'zbek, rus, qozoq, tatar, koreys va boshqa millat vakillari tahsil olgan[10]. O'quv ishlarining mazmun-mohiyatini isloh qilish maqsadida amaliyotga tadbir etilgan ishlar yangi kafedralarning tashkil etilishida o'z natijasini ko'rsatib bordi. Fakultetda keyingi yillarda tashkil etilgan kafedralar xususida to'xtalib, ularni tashkil etishdan maqsad, mavjud muammoga qanday yechim bera olishi kabi muhim jihatlarga to'xtalib o'tish maqsadga muvofiqdir. Jumladan, "Madaniyat tarixi va nazariyasi" kafedrasida (mudir: dots. E.N.Gulmetov) tashkil etildi. Ushbu kafedrani tashkil etishdan asosiy maqsad: O'rta Osiyo xalqlarining madaniyatini o'rganish, qadimgi davrdan bugungi kun (1991-yil)ga qadar kishilik madaniyatining o'zaro aloqalarini o'rganish orqali talabalarining bu boradagi bilimlarini yanada boyitishni o'z oldiga maqsad qilib olgan edi[11]. Bundan tashqari tarix fani oldida bir qancha hal qilinishi zarur bo'lgan dolzarb masalalardan biri o'rta asrlarga oid qo'lyozmalarni o'rganish kechiktirib bo'lmaz vazifa sanalardi. Negaki busiz xolis tarixni tiklash imkonsizdir. Shu maqsadda Manbashunoslik, Arxivshunoslik va Muzeysunoslik kafedrasida tashkil etilishi katta ahamiyatga ega. Ushbu kafedra dotsent O.O.Toshmuhammedovning tashbbusi bilan 1991-yilning 1-sentabrida "Manbashunoslik, Arxivshunoslik va Muzeysunoslik" deb nomlangan holda tashkil etildi[12].

Talabalarni mamlakat tarixi bilan batafsil tanishtirish maqsadida "O'rta Osiyo tasavvuf tariqatlari tarixi", "Sharq allomalarining ilmiy merosi", "O'rta Osiyo Islom madaniyati tarixi", "O'zbekistonning qadimgi va o'rta asrlar davri davlatchiligi tarixi" kabi ko'plab yangi fanlar joriy etib borildi[13]. 1994-1995 o'quv yilidan boshlab fakultetga qabul qilingan talabalar so'ngi 5 yillikda tahsil olishgan bo'lib, 1995-1996 o'quv yilidan boshlab esa 4 yillik tahsil yo'lga qo'yildi, ayni vaqtda kechki va sirtqi ta'lim shakllarining tahsil muddatlari esa o'zgarishsiz qoldirildi[14]. Ayni vaqtda talabalarining bilimlarini mustahkam amaliyot bilan bog'liq bo'lib, bu yillarda har o'quv yilida pedagogik, arxeologik va etnologik amaliyotlar tashkil etib borilgani, ularning soha doirasidagi ilk tajribaga ega bo'lishlarida salmoqli rol o'ynadi.

#### ADABIYOTLAR

1. Халбаев С. Становления и развитие университетского образования в Узбекистане. 1918-1928 йй. Дисс. ... канд. ист. наук. Ташкент, 1974.
2. Шомухаммедов.Ш., Дан.З. ТашГУ – основоположник науки в Средней Азии, Ташкент, Узбекистан, 1980.
3. Холиқова Р.Е. Ўзбекистонда тарих фани ва таълимни ривожлантириш, мутахассислар тайёрлаш (ТошДУ тарих факультети фаолияти мисолида 1935-1994 йй). Тарих фанлари номзоди ...дисс. -Тошкент, 1995. – Б. 177.
4. O'z MU Tarix fakulteti "O'zbekistonning eng yangi tarixi" kafedrasida t.f.d., prof.R.H.Murtazaeva bilan suhbatdan. 18.10.2022-y.
5. Islom Karimov nomidagi Toshkent Davlat Texnika Unversiteti Neft va
6. Gaz Fakulteti "O'zbekiston tarixi" kafedrasida t.f.d., prof. R.E. Xoliqova bilan suhbatdan. 04.04.2023

1999-2000 o'quv yilida Arxeologiya va Etnografiya kafedralarning birlashtiriladi va yangi o'quv dasturlarni ishlab chiqishlari kun tartibidagi asosiy vazifalardan biriga aylanadi. Bundan tashqari fakultetga arxeolog olim, t.f.d., prof. R.X. Suleymanov taklif etildi. Olim bilan olib borilgan suhbatda bu vaqtni quyidagicha tilga oldi: "Bu vaqtda ushbu kafedraning yetakchi professor-o'qituvchilari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat va jamiyat qurilish akademiyasiga jalb etilgani bois, ushbu kafedraning ilmiy salohiyatini saqlab, uni davom ettirishga maqsadida keng ko'lamli ishlarni olib bordik"[15]. Ushbu masalaga yechim sifatida ushbu o'quv yili davomida yangi dasturlar tuzildi, jumladan, "Markaziy Osiyo arxeologiyasi", "Markaziy Osiyo eng qadimgi shaharlar va davlatlar" fanlari bo'yicha dastur tayyorlandi va nashrga topshirildi[16].

Fakultetlararo O'zbekiston tarixi kafedrasining professori R.H.Murtazayevaning muharrirligi ostida kafedra a'zolari tomonidan «История Узбекистана. Учебное пособие для студентов неисторических специальностей» o'quv qo'llanmasi 2002 yilda chop etilib, u 2004 va 2006 yillarda to'ldirilgan holda qayta nashr etildi. Bu vaqtda kafedralar ixtisoslashib ularning soni qisqarib, optimallashtirib bordi. O'zbekiston tarixi, Jahon tarixi, Manbashunoslik, Arxivshunoslik va Muzeysunoslik, Arxeologiya va Etnografiya, Fakultetlararo O'zbekiston tarixi nomli kafedrlar faoliyat olib bordi. Buni o'z navbatida, kadrlar tayyorlashda ixtisoslashuvining takomillashuvi bilan izohlash mumkin.

**Xulosa va takliflar.** Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, mavzu bugungi kunda tarix fani va uning yordamchi sohalarni o'zida jamlagan dargohning qayd etilgan etilgan davrida yo'l qo'yilgan ayrim kamchiliklarini ochib berishi orqali bugungi kunda va kelajakda ham yuqoridagi holatlarning kelib chiqishini oldini olish hamda mamlakatimiz uchun fundamental asarlar yaratishda ishtirok etgan olimlarimizning ilm va hayot yo'llari ushbu sohaga endi kirib kelayotgan yosh tarixchilar uchun zaruriy yo'l ko'rsatkich vazifasini bajaradi desak mubolog'a bo'lmaydi. Yuqorida fakultetning faoliyatiga oid ma'lumotlarni xolis, aniq va ravshan yoritib berishga katta urg'u berildi. Bu esa bugungi kunda faoliyat olib borayotgan fakultetning buguni va ertasi bilan uzviy bog'liqdir, negaki, har bir davlat yoki tashkilot o'zining kelgusidagi faoliyatini belgilab olishi uchun albatta o'zining o'tmishi bilan yuzlanib, yo'l qo'yilgan xato va kamchiliklarni inobatga olgan holda o'zining yo'l xaritasini belgilab olishida muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu maqolani yozishda, t.f.d., prof. R.X. Suleymanov, t.f.d., prof. R.H. Murtazaeva, t.f.d., prof. R.E. Xoliqova, s.f.d., prof. A.G. Muminov, t.f.d., prof. Z.R. Ishanxodjaeva kabi professor-o'qituvchilar bilan olib borilgan suhbatlar hamda yuqoridagi yillarda talabalikdan endi o'zlarining ilk mehnat faoliyatlarini boshlagan bugungi kundagi professor-o'qituvchilar bilan olib borilgan empirik materiallar orqali ma'lumotlar to'plandi. Ularning barchasi bugungi kunda sohaning yuqori salohiyatga ega olimlari bo'lib, biz kabi yosh o'qituvchilarga o'zlarining bilim va tajribalarini ulashib, fakultet salohiyatining ortib borishiga munosib hissalarini qo'shib kelmoqdalar.

8. O‘z MU Tarix fakulteti “O‘zbekiston tarixi” kafedrasida t.f.d., prof. Z.R.Ishanxodjaeva bilan suhbat. 19.10.2022-yil
9. O‘z MU Tarix fakulteti “O‘zbekiston tarixi” kafedrasida s.f.d., prof. A.G. Muminov bilan suhbat. 15.03.2023-yil.
10. Тошкент шаҳар Марказий Давлат Архиви. 38-фонд, 2-рўйхат, 1065-йиғма жилд, 4-варақ.
11. Тошкент шаҳар Марказий Давлат Архиви. 38-фонд, 2-рўйхат, 1050-йиғма жилд, 3-варақ.
12. Тошкент шаҳар Марказий Давлат Архиви. 38-фонд, 2-рўйхат, 1060-йиғма жилд, 18 - варақ.
13. Тошкент шаҳар Марказий Давлат Архиви. 38-фонд, 2-рўйхат, 769-йиғма жилд, 1-варақ.
14. Тошкент шаҳар Марказий Давлат Архиви. 38-фонд, 2-рўйхат, 1064-йиғма жилд, 8-варақ.
15. O‘zMu Tarix fakulteti O‘zbekiston tarixi kafedrasida t.f.d., prof. Z.R. Ishanxodjayeva bilan bo‘lgan suhbatdan. 28.05.2025-yil.
16. Ўзбекистон Миллий университети жорий архиви. 38- Фонд, 1-опис, 2394- йиғма жилд, 16-варақ
17. O‘zMu Tarix fakulteti Arxeologiya kafedrasida t.f.d., prof. R.H. Suleymanov bilan olib borilgan suhbatdan 24.10.2024-yil.
18. Тошкент шаҳар Марказий Давлат Архиви. 38-фонд, 1-рўйхат, 1519-йиғма жилд, 1-варақ.